

---

---

BIRINCHI KITOBIM

---


---

Go'zal Ro'ziyeva

---

# BAHOR YAQIN

*She'rlar*



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2016

UO'K 821.512.133-1

KBK 84(50)'7

R 99

uzbek  
apaduetu

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» Respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

Mas'ul muharrir:

Farog'at Xudoyqulova

Ro'ziyeva, Go'zal

R 99 Bahor yaqin [matn]: she'rlar/G. Ro'ziyeva. —  
T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016. — 32 b.  
ISBN 978-9943-05-812-5

UO'K 821.512.133-1  
KBK 84(50)'7

ISBN 978-9943-05-812-5

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016  
2016/114  
625



## ONAMGA

Onam ekan rayhon, ey xushifor gul,  
Sarrin sabolarga to'lmish yashil bog'.  
Seni bu bog'larga bergan ayolning  
Qalbi dunyolardan ulkan, beadog'.


Yaxshi-yomonga ham harorat sochgan  
Quyoshdir mening-chun, bilsang, asli u.  
Samovatning barcha nurlari, shaksiz,  
Mehrli ko'zidan olgandir yog'du.

O, uning to'rt fasli yoz bo'lsin uzun,  
Poyiga gul sochib tinmasin bahor!  
Sochin oqlarining har bir yo'lida  
Umrin tashvishlarin bekatlari bor...

Rayhon, jannatgulim, bo'yidarmonim,  
Ko'ksimda jon qadar uradi bir yer.  
Yana yo'ling tushsa bog'i behishtga,  
Unga Xudoyimdan umr so'rab ber!

Bilsang, u — tikuvchi, hayot yo'llari  
Gazmollar, bichimlar bilan to'ladir.






Onam tikkan mato to'plansa agar,  
Yer shariga ko'ylak tiksa bo'ladir..!

Mushfiqam u mening,  
mohir chevarim –  
Qalbim choklarini ulab turguvchi.  
Umridan to'lovchi baxtxaridorim,  
Borini borim-chun tilab turguvchi...

Onam ekan rayhon, muattar gulim,  
Uning bilan hayot yo'llarim oqdir.  
Ko'nghim sezar... Usiz qolsa gar umrim,  
Umrmas, uvada, ola-quroqdir...



## BAHOR BO'LSAM...

Bahor bo'lsam, bog'ingizdan ketmas edim  
Boshingizdan sohib qiyg'os kurtaklarni.  
Tungi yellar aro sizga shivirlardim,  
Baxtli yakun topgan barcha ertaklarni...

Bahor bo'lsam, qizg'aldoqlar to'shar edim  
Poyingizga olib kelib cho'qqilardan.  
Shoshqin soyga, sharsharaga o'xshar edim,  
Uyg'otardim sizni ming yil uyqulardan.

Yalpiz bo'lib unar edim bag'ringizda,  
Bo'yingizga gultumorlar taqarmidim...  
Azizimsiz — yuragimning kaftidagi,  
Ayting, bahor bo'lsam sizga yoqarmidim?..





## BAHOR YAQIN...


Tobora adoqdir qishning ham zaxmi,  
Tobora zaminga yaqindir Quyosh.  
Xudoni hammadan avval sog'ingan  
Boychechak diydor-chun ko'taradi bosh.

Tobora kechalar fusunkor, sokin  
Tobora kunduzlar xush yoqar tanga.  
Azizim, mart yaqin...  
Hatto qorlarning  
Bag'rida alanga, alanga!

Holbuki shudringlar hamon muztomchi,  
Hech biri dur bo'lib qololmas, zotan.  
Hayot, o, qanchalar suyuksan! Sen deb  
Uch fasl kurashar qahraton bilan...

Kichraygandek tog'lar shashti, viqori  
Bosh egar har maysa, gul yaprog'iga.  
Oshiq yellar aytar sirli kuy, o'lan,  
Hali yuz ochmagan qizg'aldog'iga.

Ey, za'faron yuzlim, ko'zlaringni och,  
Unda porlar hali samoviy chaqin.  
Shunday kunlar kelar ochishib quchoq,  
Axir, bahor yaqin...  
Axir, mart yaqin!..



## NAVRO'ZGA

Dunyo bor ranglarin qilgan namoyish,  
So'ng bag'ir qonini qirlarga sochgan.  
Dov-daraxtlar intiq ko'z tikkan senga,  
Sen uchun har maysa qayta ko'rk ochgan.


Sezdingmi, quyoshning jilvasi turfa,  
Nur bilan to'kmoqda zarralarini.  
Qish bo'yi qovog'in ochmagan osmon  
Shodon chorlamoqda turnalarini!

Bog'lar-chi, bog'larda bir zavq hukmron,  
Go'yo yosharishib bormoqda asta.  
O, ular uzun qish sog'indi seni!  
Endi yo'llaringga to'shar guldasta.

Kapalakning shodon quvnashini ko'r,  
Axir, yer-ko'kda ham yo'q edi kecha.  
Avval-oxir o'zin o'zgartdi butkul,  
Odamzoddan tortib chumoligacha...

Eng go'zal libosin kiymoqda zamin,  
Borliq chor tarafga berayotir zeb.  
Navro'z, mamnunmisan ko'rganlaringdan,  
Koinot o'zgardi tashrifingni deb!..





## ZULFIYA SIYMOSI YOXUD VAFOGA QO'YILGAN HAYKAL

Bu yerda shaharning shovqini tingan,  
Lek hayot qo'shig'in kuylar har daraxt.  
Bu yerda nafis bir sukut hukmron,  
Bu yerda hattoki to'xtab qolgan vaqt.

Bu haykal poyida tuproq qorishiq,  
Dolg'ali zamonning sasi, gina, kek.  
Go'yo, u ahdiga sodiq Ayolning  
Ulkan yuragi-chun o'rnatilgandek...

Yonimda chug'urlar to'rtmi-besh sayyoh,  
Haykal savlatiga termulishar lol.  
Ularni mahliyo etgandi, shaksiz,  
Olistarga o'ychan tikilgan ayol...

...Bilganim barchasin so'zladim bir-bir,  
Zulfiya ijodi, she'riyatini.  
Qalb torlarin ilhom bo'lib chertgan u —  
Umr yo'ldoshiga muhabbatini.

Qattol urush solgan jarohatlarni,  
Xalqning o'tmishini tinglashardi jim.  
Navnihol yoshida ayriliq dardin,  
So'zlarkanman, kimdir xo'rsindi, sezdim.



Shu lahza bir sayyoh chiqdi-yu safdan,  
Der: — Kezdim dunyoda ko'plab manzillar.  
Daholarni bergan yurtlarni ko'rdim,  
Ko'rdim dahosiga noloyiq ellar...

Ko'rdim buyuklarning haykallarini,  
Turishar qo'r solib go'yo dunyoga.  
Ammo, mana ilk bor guvohi bo'ldim  
Haykal qo'yishganin ahdga, vafoga!

So'ng jilmayib deydi: — Qarangiz, undan  
Bir ko'rkam, bir sokin yog'du taralar.  
Menimcha, bu siymo nomi sizlarda —  
Vafoning timsoli deya atalar!





## TELEFON SIMI

Saharning boshidan qor sochar osmon,  
Sovqotgan uylar ham qunishib olgan.

Qay sabab uzilgan telefon simi,  
Qari tut shoxiga ilinib qolgan.

Hech kim parvo qilmas, sezmaslar yoki  
(Balki sezgilar ham unut sahardan).

Balki bu ko'p ulkan fojia emas,  
Yo'qotishlar aro sarson shaharda...

Sim emish, uzilar qalblar, asablar,  
Qaylarda ko'priklar chirt sinar nogoh.

Kindir sog'inganin aytmoqchi edi,  
Kindir sevishini...

Faqat shu, xolos.

Baland uy oldida turar bir yigit,

Qaydandir bir yashin ko'zlarga ko'chgan:

— Demak, kechirmagan... Demak, sevmaydi!

Axir, erta tongdan aloqa o'chgan!

Qaysidir bir uyda parishonhol qiz,

Tizzalarin quchib, o'y surar ma'yus:

– Sensiz hech kimligim bildirmoqchiydim...  
Go'shakni olmading, afsus, ming afsus!..

Hanuz qor elaklar telba tabiat,  
Ammo nechun yog'du berolmas dilga?..  
Yigit jim o'grilib, ortiga qaytdi,  
– Alvido!.. So'ng ketdi uzoq manzilga.

– Ey yo'lovchi, to'xta!  
Mahzun bo'lma, qiz!  
Yuragingni solma o't-firoqlarga.  
Imkon bergin, nahot taqdiring bog'liq  
Allaqanday mubham qo'ng'iroqlarga...

Shu lahza zaminning qay burchagida  
Bo'ronlar vahm solgan, kulgular tindi.  
Sho'rishlar ko'pchigan inson boshiga  
Yangi bir g'avg'omi bu simlar endi?!.

Ko'hna simyog'ochning chinqirig'ini  
Hech kimsa sezmedi. Qayrilmadi iz.  
Olis yo'llar olib ketdi yigitni,  
O'zga sovchilarga rozin aytdi qiz...





## OTAMGA

Ko'z o'ngimda jonlanar xotir,  
Quti hovli va supa toshloq.  
Qo'g'irchog'in sudrab har tomon,  
Bijirlyaydi jajji qizaloq.

– Ota, qushlar qachon uxlaydi?  
– Ota, nega ko'k rangda osmon?  
– Ayting, axir, daraxtlarning ham  
Otalari bormi, otajon?

U nimadir,  
Bu nega, ota?  
Nigohlarim boqadi o'ychan.  
Otam sira charchamas mening  
Bir antiqa savollarimdan.

Javob berar, silarkan boshim,  
His qilardim qaynoq kaftini.  
Yillar o'tdi hanuz hech mehr  
Bera olmas u qo'l taftini.

O, bu yillar o'tmaslar shundoq,  
Har narsani bilgichman endi.



Har nimaga qodirman go'yo,  
Havoga mix ilgichman endi...

Lekin hanuz bolalikdagi  
Bir o'y mudom hamroh baribir.  
Dunyodagi barcha otalar  
Xudoyinning qo'shnilaridir!..

Undim, o'sdim, ammo ich-ichdan  
O'sha jajji qizchaman hamon.  
Yoshim yuzga yetgan damda ham,  
Ayting, hamrohmisiz, otajon?..





## ZARAFSHONGA

Kabutardek potirlab ko'nglim,  
Kengliklarni sog'inadi goh.  
Zarafshonning bo'yidagi chim,  
Do'ngliklarni sog'inadi goh.

Onam kirlar yoygan daraxtlar,  
Tushlaringa kiradi bot-bot.  
Orzularim varraklarini,  
Tortib-tortib o'ynaydi hayot.

Zarafshonim, zarlar daryosi,  
Yo'lga boqib, o'yga tolghanim.  
Quchog'ingga qaytaman bir kun,  
Rozi qilib, duo olgani...



Yaxshiyam yo'llar jim,  
Gapirmas yo'llar,  
Yaxshiyam toshlarning toshligi bor gap.  
Agar tilga kirsa banogoh ular  
Chaqirib kelardi sizni ataylab...

Yaxshiyam osmonning osmonligi haq,  
Yo'qsa, sog'inchimni sizga aytardi.  
Yomg'irga aylanib ko'z yoshlarimdan,  
Ko'ksingizga to'kilib qaytardi!..


Yaxshiyam simlarning tili yo'q hali,  
Eshitadi xolos, so'zlaganimni.  
Faqat u — telefon, bilar tunlari  
Go'shakka termulib yig'laganimni...

Yaxshiyam daraxtlar shovullar faqat,  
Qo'rqaman bir kuni qolsalar so'zlab.  
Ismingiz o'yilgan sershox po'stloqqa,  
Million martalab bosgan edim lab...

Yaxshiyam Siz borsiz soqov dunyoda,  
Daraxtlar, qushlarning borligi kabi.  
Goh ro'yo, gohida jannatiy tuhfa —  
Orombaxsh tushlarning borligi kabi.

Yaxshiyam Siz borsiz tilsiz dunyoda!..





♦ ♦ ♦

Bir nurki,  
Egasiz harorat,  
Bir nurki, Quyoshning tafti bor.  
Bir kuni kelasan sen albat,  
Bu nurga bir sening haqqing bor...

Bir qalbki...  
Otashi, gulxani  
Yondirsa... O't qo'yar olamga.  
Bir dardki, adoqsiz mahzani,  
Bilmaysan, og'ir bir odamga.


Bir malak...  
Bir xilqat...  
Bir suvrat...  
Endi har yoningda kezadi.  
Bir yurak...  
Bir taqdir...  
Bir qismat...  
Ayt, qachon baxtini sezadi?!

Bir nazar,  
Hechqursa bir nazar..!



Dil o'zga orzuni tilamas.  
Sensizlik...  
Va bir men vafodan  
O'zgasin yoniga yo'lamas.

Bir kuni,  
Yig'lagan, yoziq soch,  
Ko'rganding, telbahol turgandim.  
U — kunmas, eslagin... Sog'ingach,  
Noiloj...  
Tushingga kirgandim!..





Men o'zimni tushunmayman so'nggi vaqtlar,  
Qalbdan mavhum hislar, unga qaytgim keladi.  
Axir sizni sevmayman-ku...

Yana siz haqda  
Yaqinlarga to'lib-toshib aytgim keladi!..

Siz borgan yo'l yuragimdan o'tganmi,  
bilmam,  
Ohangrabo u ko'chaga bo'ylayveraman.  
Bu berahm, qattol tuyg'u bilmadim nima,  
Sevmayman-ku...  
Nega sizni o'ylayveraman?..

Garchi, sira xijolatga o'rin yo'q, biroq  
To'qnash kelsak, yuzlarim duv qizaradilar.  
Dunyolarga biyron tilim sizga kelgan choq  
Talqon yutgan!  
Kalovlangan!  
Bo'zaradilar...

Siz tobora olisdasiz, yetmoqlik dushvor,  
Bilib turib yana sizga borgim keladi.  
Sezayapman,

bu dunyoga kelsam ham takror,



Sevmayman-ku..!  
Nega sizni ko'rgim keladi?..

Qayga bormay,  
Qayga yurmay,  
Neni o'ylamay.  
Qasd qilgandek – ko'z oldimda turaverasiz.  
Yashamaymi,  
Uxlamaymi,  
Sevmayman axir!  
Nega mening tushlarimga kiraverasiz?..



WWW.NATLIB.BU



## BAHORNİ SOG'INDİM...

Poyimga gullarin to'shagan —  
Bir go'zal iforni sog'indim.  
Mehrda singlinga o'xshagan —  
Bahorni sog'indim...

Qizg'aldoqlar quchgan tog'larni,  
Xush nasimlar esgan bog'larni,  
Olib kelgan dilxush chog'larni,  
Bahorni sog'indim...

Arg'imchoqda uchgan hislarni,  
O'sma surgan sirdosh qizlarni,  
O'rik guli to'kkan izlarni,  
Bahorni sog'indim...

Qorlar ezgan ma'yus torko'cha,  
Chuchmomaga intiq zor ko'cha,  
Oxir aytdi dardlarin kecha,  
«Bahorni sog'indim!..»

Kapalakman, asli guldagi,  
Sog'inchmi u og'riq dildagi,  
Yig'lamadim!..

Yo'q, yo'q, shunchaki,  
Bahorni sog'indim...



## NIMA BO'PTI...

Yodingizni ko'nglin toqiga ilib,  
Nima bo'пти, sizni sog'insa bir qiz...  
Borligingizni-da baxti deb bilib,  
Suratingiz ila ovunsa bir qiz...

Ko'ksiga kechalar urganda xanjar,  
Bolishga dardlarin aytib yig'lasa.  
Dunyo keng, rango-rang bo'lsa-yu agar,  
Siz sabab...  
Siz sabab sig'masa...

Quyosh tinglamasa, ufqqa berkinib,  
Ko'kka o'rlab borsa qalbining ohi.  
Bir sizga intilib, sizga yukunib  
Yashagani bo'lsa, yolg'iz gunohi...

Qiz yuragi o'zi shunday muammo,  
Salga bu borliqdan to'yadi.  
Unutadi, baxtli bo'ladi, ammo  
Nari borsa...  
Sevgiga ishonmay qo'yadi...



## XALQIM

Bag'rikenglik, kamtarlik faqat  
Dunyo ichra sengagina xos.  
Fazilating bir kitob etsam,  
Xislatindingdan bir tomchi, xolos.

Sen o'zingsan, yurakda aslo  
Saqlamagan na kek, adovat.  
Senga xosdir, sengagina xos,  
Tog'dek bardosh, sabr, qanoat.

Har bir so'zing, har bir kaloming  
Ko'ngillarni etar charog'on.  
Har bir o'ksik, ko'ngli kemptikka  
Sening o'zing mushfiq, mehribon.

Yuragimda buyuk muhabbat,  
Sevgan sayin to'lishar aqlim.  
Bir umrga aylay sadoqat,  
Borligingga ming shukr, xalqim!

## TONG SABOSI

Nurga intil, saboga intil,  
Yog'dularga tutgil yurakni.  
Ishq qo'shig'in kuyla, bu qo'shiq  
Larzalarga solsin falakni.

Yuzingni tut tong sabosiga,  
Savoliga javob bergil jim.  
So'zlarimga quloq sol asta,  
Tong sabosi – bu menman, do'stim!..





## GULXAN

Qahraton, izg'irin. Chimchilar sovuq.  
Gursillab, charsillab yonadi gulxan.  
Lovullar xayolga solib chirmovuq,  
Xuddi cho'kayotgan kemadek ulkan.

Izg'irin tortqilar so'ndirmoq bo'lib,  
So'nish emas, balki taftin oshirar.  
Muz borki, tarnovda turolmas qotib,  
Bokira hislarim soydek shoshirar.

Dunyoda hali ko'p otashin qalblar,  
Gulxandek nur sochar, yog'du taratar.  
Shu olov qalblar bor, qabohat bo'lmas,  
Shu issiq yuraklar baxtni yaratar!



## SHE'RIMGA

She'rim, sen daryolar mavji, shevasi,  
Nurdek oqib chiqding otashin dildan.  
Sensan — yosh qalbimning shirin mevasi,  
Makon top hayotni sevgan ko'ngildan!

Erta tong chog'ida esgan nasimsan,  
Tog'larning tug'yoni — misli shalola.  
Kuy bo'lib, nur bo'lib bir-bir taralgin,  
Muhabbat, sevgidan so'yla hikoya.

Sen mening baxtimsan, hayotda topgan,  
Ishq ila olovdan yaralgan tilak.  
Abadiy ko'nglinga aylagin tashrif,  
Sen bilan hamnafas yashasin yurak!





## BIL SAYDING...

Tanimda — sog'inchdir, ruhimda sog'inch,  
Bir senga yetmaydi dildagi dodim.  
Umrin ishq dayrida sarson kezarmi,  
Ey, jonimga qasdli, ko'zi jallodim?!..  
Malak edim, ko'shkdan tushdimmi nogoh?  
Ming yilki, poyingda yongan lolaman.  
Sevgimni toptama, kun kelib nogoh,  
Chorlab, kutganingda ketib qolaman..!  
Sevgimdan yozaman ming bitta kitob,  
Sen uni na ko'rgan, na o'qiy olgan.  
Sendan olis ketay deyman-u, faqat,  
Ilojsizman, axir qalb senda qolgan!..



Ayting unga borib,  
Eslamaydi, deng,  
Bedor hislar topgan uyqularini.  
Ko'zingizni qo'msab yig'lamaydi, deng,  
Ayting,  
Dunyoga sochyapman kulgularimni...

Ayting, «Osmonida yulduzlar endi,  
Ko'ksida jimirlab, nurlarni sochgan.  
Bag'riga bir ozod qaldirg'och indi,  
Umri xarobamas,  
Boyqushlar qochgan!

U — Qahkashon hozir,  
Baxtdan-da baxtli!  
O'lib, tirilgani sezilmaydi, deng.  
So'lgan qalbni ko'mdi, azador emas,  
Nimagadir bundan ezilmaydi, deng...

Iltimos, barini, barini ayting,  
Faqat, oq ranglarni qo'shiblar so'zlang.  
U — toshqin daryodir, bir irmog'i ham  
Sizga quyulmas, deng!..  
Jo'shiblar so'zlang.





Umrin kuzaklarin xazonlar yopdi,  
Endi to'kilmogga nima ham bor, deng.  
U qayta tug'ilgan, biram chiroyli...  
Uning endi to'rtta fasli bahor, deng!

Suyanchim, do'stimsiz, ishonganim — siz,  
Barcha gapim ayting, iltimos, terib.  
Ha, shunday baxtliman.  
Baxtdan baxtliman,  
Ko'nglimga quyosh bosh qo'ygandan beri...  
  
Ko'nglimga quyosh bosh qo'ygandan beri...



## SIZGA MENING SAVOLLARIM KO'P...

Sizga mening savollarim ko'p,  
Bilmam, qaydan yig'ilayapti.  
Ammo jur'at...  
Nigohingizning  
Epkinidan yiqilayapti!...

Omadmi bu, balki Xudoyim  
Baxt eladi elaklaridan.  
Uchrashtirdi nurli bir kunda,  
Taqdirning tor yo'laklarida.

Bilmam, endi neniki bersa  
Imlosidan ko'raveraymi!  
Umringizga kiraymi, ayting,  
Yo, yo'lakda turaveraymi?..





## YUPANCH

*Biz baxtli bo'lamiz, xudo xohlasa...*

*M. Yusuf*

O'kinmang hech qachon «baxtim kam» deya,  
Ko'zda mudom sog'inch, armon, nam deya,  
Kuyinmang bu dunyo — azal g'am, deya,  
Biz hali hammadan baxtli bo'lamiz!

Bilaman, bu dunyo aslidan bir kam,  
Kimning ko'ksi tog'dek, kimning ko'zi nam,  
Vaqt bariga malham, vaqt — oliy hakam,  
Biz hali hammadan baxtli bo'lamiz!

Bugun ortingizdan g'iybat qilarlar,  
Ko'rasiz, ertaga hasad qilarlar,  
Ba'zida pinhona havas qilarlar,  
Biz hali hammadan baxtli bo'lamiz!

Ne kunlar tushmaydi bu qattiq boshga,  
Tomchi suv hech qachon tig' bo'lmas toshga,  
Tunga emas, faqat boqing quyoshga,  
Biz hali hammadan baxtli bo'lamiz!..



## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| Onamga.....   | 3  |
| Bahor bo'lsam.....                                    | 5  |
| Bahor yaqin.....                                      | 6  |
| Navro'zga.....  | 7  |
| Zulfiya siymosi yoxud vafoga qo'yilgan<br>haykal..... | 8  |
| Telefon simi.....                                     | 10 |
| Otanga.....   | 12 |
| Zarafshonga.....                                      | 14 |
| «Yaxshiyam yo'llar jim...».....                       | 15 |
| «Bir nurki ...».....                                  | 16 |
| «Men o'zimni tushunmayman...».....                    | 18 |
| Bahorni sog'indim.....                                | 20 |
| Nima bo'пти.....                                      | 21 |
| Xalqim.....   | 22 |
| Tong sabosi.....                                      | 23 |
| Gulxan.....   | 24 |
| She'ringa.....  | 25 |
| Bilsayding.....                                       | 26 |
| «Ayting unga...».....                                 | 27 |
| Sizga mening savollarim ko'p... ..                    | 29 |
| Yupanch.....  | 30 |

4000 c



Adabiy-badiiy nashr

BIRINCHI KITOBIM

Go'zal Ro'ziyeva

## BAHOR YAQIN

*She'rlar*

*Muharrir Umida Rajabova*

*Badiiy muharrir Jahongir Badalov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko*

*Musahhah Umida Rajabova*

*Matn teruvchi Gulchehra Azizova*



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2016-yil 15-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/32</sup>. Ofset qog'ozi. BalticaUz garniturası. Shartli bosma tabog'i 1,0. Nashr tabog'i 0,99. Adadi 20000 nusxa. Shartnoma № 67—2016. Buyurtma № 369.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.